

## KUNDIZGI VA TUNGI YIRTQICH QUSHLARNING BIOEKOLOGIYASI, BIOLOGIYASI VA HAYOT SIKLI

**Ahmadjonova Ma'muraxon Ne'matovna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *O'zbekistonning katta qismi, ya'ni yurtimiz maydonining 85 foizini cho'l va yarim cho'llar tashkil etadi. Ular sharqda va janubi-sharqda umumiy hududning 15 foizini band etgan Tiyanshon va Hisor-Oloy tog' tizmalariga tutashib ketadi. Mazkur hududlar jonivorlarning yashashi, ko'payishi hamda qishlashi uchun juda qulay makon sanaladi. O'zbekiston ornitofaunasi turlarga juda boy bo'lib, hozirgi kunda 432 turni o'ziga birlashtiradi.*

*Mazkur maqola ayrim yirtqich qushlar turkumiga mansub qushlarning hayot sikli, biologiyasi va ekologik xususiyatlariga oid ma'lumotlarni yanada boyitadi. Yirtqich qushlar etologiyasi va ayrim fe'l-atvorlaridagi o'ziga xoslik qushlarning ornitofaunadagi hamda faunogenezdagi o'rni, evolyutsiyasi va ahamiyatini izohlash, nazariy jihatdan ularni keng qamrovli o'rganish uchun imkoniyat beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Bioekologiya, omil, atrof-muhit, muhit, fauna, yirtqichva tungi qushlar.*

Qushlar hayvonot dunyosi ichida o'zining xilma-xilligi hamda tur tarkibi jihatidan boshqa hayvonot dunyosi vakillaridan ajralib turadi. Lochinsimonlar monogam qushlardir. Ochib chiqqan jo'jalari momiqli va ko'zi ochiq bo'ladi. Lekin mustaqil ovqatlana olmaydi. Ular dastlab uzoq vaqt uyasida yashaydi. Yil davomida sharoitga qarab bir yoki ikki marta ko'payadi. Uyasini daraxtlarga, ba'zida kovaklarga, qoyalarga va yerga qo'yadi. Yirik turlari 1-2 ta, mayda turlari 6-9 ta tuxum qo'yadi. Tuxumlari sonini ko'p yoki oz bo'lishi oziqaning mo'l-ko'lligiga bog'liqdir. Tuxumini bosib yotish muddati ikki oyni tashkil etadi. Tutqinlikda qirg'iy 25 yil, hayvonot bog'ida 65 yil yashagan. Kalxat aprel oxirida yangi in quradi yoki eski inlarini tuzatadi. Daraxtlar kam bo'lgan joyda bir daraxtga bir necha juft kalxat qo'nadi. Inning yuzasini cho'plar va chilpindidan yasaydi, ichiga latta, paxta, kigiz parchalari, shuningdek ot go'ngi va qumoq loy bosadi. Modasi aprelda, ba'zan may oyida sharoitdan kelib chiqib bittada yoki beshtagacha tuxum qo'yadi. Tuxumlarining rangi oq bo'lib, qo'ng'ir dog'lari va chiziqchalari ko'rinib turadi. Deyarli 30 kundan keyin tuxumlaridan jo'jasi chiqadi. Qo'yilgan tuxumlarni har ikkala jins bosib yotadi. Jo'jalari 25 kunda pat chiqaradi va taxminan 6 haftalik bo'lganda inidan uchib chiqadi.

Kalxat hammaxo'r qush, qushxona tashlandiqlari va o'laksalar bilan oziqlanadi. Ko'pincha kemiruvchilar, qo'ng'izlar, chigirtkalarni, ba'zan qushlarni tutib yeydi. Kalxat o'laksalarni yeb, sanitar vazifasini o'taydi. Kemiruv chilarni va chigirtkalarni qirib katta foyda keltiradi. Kalxat qushlarni tutib yeb katta zarar keltirmaydi, chunki qushlar kalxatning changaliga kamdan-kam tushadi. Kalxat foydali qush bo'lgani uchun uni qo'riqlash kerak. Dunyo bo'yicha qushlarning 9 mingdan ortiq turlari tarqalgan bo'lsa,

shundan, bizning davlatimizda yuqorida qayd etilganidek 432 turiga yaqini qayd etilgan. Qushlar sinfi orasida yirtqich qushlar alohida turkumni tashkil etadi. Bu turkum 2 ta kenja turkumlarni tashkil etadi. Kunduzgi yirtqich qushlar kunduzi ov qiladi, unchalik ko'p bo'lmaganlari kechasi ov qiladi. Bu kenja turkum vakillari o'rtacha kattalikda monogan holda yashaydi. Kunduzgi yirtqichlar turkumiga jig'altoy burgutlar, kalxatlar, tasqaralar kiradi. Umuman aytganda, yapaloqqushlardan tashqari haqiqiy yirtqich qushlarning hammasi shu turkumga kiradi. Ular asosan tumshuqlarining ilmoqsimon qayrilganligi, o'tkir changal tirnoqlari borligi bilan xarakterlanadi. Kunduzgi yirtqichlar juft bo'lib yashaydigan jish bolali qushlardir. Ularning har ikkala jinsi ham ko'pincha bir xildagi xira rangda bo'lib, urg'ochisi erkagidan katta bo'ladi. Bizda uchraydigan yirtqich qushlarining deyarli barchasi foydali qushlar hisoblanib, zararli kemiruvchilar va hashoratlarni qiradi.

Amerika tasqaralari bilan 2-kenja turkumga kiradigan eski dunyo tasqaralari o'rtasida katta konvergent o'xshashlik bor, bu ularning yirik o'limtiklar bilan oziqlanishiga bog'liq. Amerika tasqaralari burun teshiklari orasida to'sig'i yo'qligi va orqa barmoqlarining oldingi barmoqlari bilan bir qatorda turmay, balki ularda yuqoriroqda turushi bilan yirtqich qushlardan farq qiladi. Yirtqichlar turkumi polifiletik ya'ni 2 ildizdan kelib chiqqan deb faraz qilinadi.

1. Toshqirg'iy. *Accipiter badius* [Gmelin, 1788]
2. Qarchig'ay. *Accipiter gentiles* [Linnaeus, 1758]
3. Qirg'iy. *Accipiter nisus* [Linnaeus, 1758]
4. Tasqara. *Aegyptius monachus* [Linnaeus, 1766]
5. Burgut. *Aquila chrysaetus* [Linnaeus, 1758]
6. Quloqli yapaloqqush. *Asio otus* [Linnaeus, 1758]
7. Boyo'g'li. *Athene noctua* [Scoroli, 1769]
8. Dasht miqqiysi. *Falco naumanni* [Fleischer, 1818]
9. Jig'oltoy. *Falco subbuteo* [Linnaeus, 1758]
10. Miqqiy. *Falco tinnunculus* [Linnaeus, 1758]
11. Oq bosh qumoy. *Gurs fulvus* [Hablizi, 1783]
12. Qora kalxat. *Milvus migrans* [Boddaert, 1783]
13. Soz bo'ktargisi. *Sircus aeruginosus* [Linnaeus, 1758]
14. Dala bo'ktargisi. *Sircus cyaneus* [Linnaeus, 1758]

Yirtqich qushlar asosan umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi. Ularning tana tuzilishi va xatti-harakati o'ljani qidirib topish va ushlab olishga moslashgan. Xususan, uzun va o'tkir tirnoqlarining uchi ilmoqqa o'xshash qayrilgan bo'lib, o'ljani ushlab va o'ldirishga moslashgan; qisqa baquvvat va uchi pastga qayrilgan tumshug'i esa o'ljasi ctini yulib olishga imkon beradi. Yirtqich qushlarning ko'zi o'tkir bo'lganidan o'ljasi uzoqdan payqab oladi. Yirtqichlar juft bo'lib yashaydi. Yirik qushlarning jufti butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Ular daraxtlarga va baland qoyalarga uya qurib, jish jo'ja ochadi. Yirtqich qushlar kunduzgi yirtqichlar va yapaloqqushlar turkumlariga bo'linadi.

Yirtqich qushlar turkumi, qiyg'irlar oilasiga kiradi. Oqboosh sip O'zbekistondagi yirik griflar – o'limtikxo'r qushlardan bo'lib, faunamizning ko'rki

desak, xato qilmaymiz. Kattaligi jihatidan qora va qor griflaridan biroz kichikroq. Qanotini yozganda ikki yarim metr ga yetadi, og'irligi 78 kg ga yaqin. Tashqi tuzilishida uzun bo'yni va boshi kalta oq momiq patlar bilan qoplangan. Umumiy rangi och qo'ng'ir, dumi va qanoti qora, bo'ynining ost qismi (yoqasi) qalin uzun oq momiq patlar bilan qoplangan, jig'ildon patlar qo'ng'ir. Tumshug'i qo'ng'ir oyog'i kulrang. Bo'ynida yalang'och havorang dog'lari bor. O'zbekiston tog'l arida ancha keng tarqalgan.

Farg'ona vodiysida Pomir-Oloy va Chotqol tog'larida 2000 m balandliklarida uya quradi. Inlarni yonbag'irlardagi qoyatoshlarga quradi. Boshqa yirtqichlar uyasini xascho'plardan quradi. Ko'payish vaqtlaridagi havo o'yini diqqatga sazovor. Jufti solatlar uya oldida uchadi, xo'rozi makiyonini yaqindan uchib uni harakatini aniq qaytaradi, burilishi, pikirovaniyalarini aniq takrorlaydi, oyoqlarini xuddi qo'ngandek uzatadi – yozadi. Uyasida ham har ikkala qush bir-biriga yaqin turib juftini patlarini tumshug'ida silaydi. Juftlari doim birga yashaydi. Xo'rozi qul-qulilar singari qanotlarini xurpaytirib tushirib, dumlarini tiklab makiyoni atrofida gir-girton bo'ladi. Yagona tuxumini makiyoni va xo'rozi navbatlashib, 50 kunga yaqin bosadi. Tuxum qo'yish yozning boshlariga to'g'ri keladi. Iyun oylarida patlari rivojlanib qoladi. Bolalarini har ikkalasi jig'ildonida olib qolgan ovqatini qusib boqadi. Ba'zida oqboosh griflarning o'nlab juftlari kolloniya bo'lib yashaydi. Siplar havoda suzib, har kuni ovqat topish uchun bir necha o'nlab kvadrat kilometr masofalarni uchib o'tadi. O'tkir ko'zlari biron o'limtikka tushadigan bo'lsa, uni ustida aylanib uchadi va boshqalarini jalb qiladi. Bu qushlar boshqalarining harakatlarini uchish davrida diqqat bilan kuzatib boradi. Oldindagi o'ljaga yaqinlashayotgan sipning ortidan boshqalar ham xadiksiz tusha boshlaydi. Bu qushlarni tumshuqlari baquvvat, yirik, hayvonlar terisini yirtish va go'shtlarini uzib yeyishga moslashgan. Yirik o'limtiklarni birnecha o'nlab to'planib iste'mol qilishadi. Ba'zida ko'p ovqatlanib ucholmay qoladi. Bunday holda qusib tashlaydi. Bu qushlar insonlarga hech qanday zarar keltirmaydi. Sanitarligi bilan foyda keltiradi. Lekin boshqa yirik yirtqich qushlar singari ularni noo'rin o'ldirilmoqda, natijada ularning populyatsiyasi son jihatdan sezilarli ozaydi, muhofazaga olinishi kerak.

#### **BURGUT - AQUILA CHRYSÆTUS [LINNÆUS, 1758]**

Burgut 1758 yilda K.Linney tomonidan birinchi marta fanda qayd etilgan. Bu tur yirtqich qushlar turkumi, qiyg'irlar oilasining vakili bo'lib, O'zbekistonda keng tarqalgan. Farg'ona vodiysida burgut baland tog' qoyalarining 3000 m va undan yuqori qismlarida uchraydi. Erkagining og'irligi 6 kg gacha, bo'yi esa 70 -90 sm (qanotlarini yozganda 220 sm) gacha boradi. Urg'ochisi esa erka gidan biroz kattaroq bo'ladi. Ranggi to'q qo'ng'ir, yoshlarining dum asosi oq, uchi qora bo'ladi. Uchganda oldingi qoqish patlarini barmoqqa o'xshatib ketadi.

Burgut o'troq qush, faqat qishda tekisliklarga tushadi. Tog'lardagi qoyalarga uya quradi, uyasini har yili yangilab turadi, uning diametri va balandligi 2 m atrofida bo'ladi. Burgutlarning uyasi bir-biridan 10 km masofada bo'ladi. Mart oylarida urg'ochi

burgutlarning bir qismi uya qurgan hududlarda qishlab qoladi. Boshqalari esa qishlash uchun Janubiy o'lkalarga uchadi. Borishi qiyin bo'lgan o'rmonlar, botqoqlar paydo bo'lgan o'rmonlar, tog'larda ko'plab uyalar quradi. Ular ko'proq ov qilishga qulay bo'lgan botqoq, daryo vodiylari, tog'lar, pasttekisliklar yaqinlariga uyalar quradi.

Asosiy ozig'i quyon, tog' echkisi, o'rdaklar, tovuqlar, katta qushlardan g'oz va turnalargacha tutib yeydi. Ilonlarni ko'p ovlaydi. Qishda o'lgan hayvonlarni topib ham yeydi. Tulkilarga ham hujum qiladi. Bug'ular, tog' echkilariga ham hujum qiladi. Juft bo'lib yashaydi. Umri oxirigacha juftligini saqlaydi. Baland daraxtlarda 1.5-3 m gacha bo'lgan diametri 2 balandlikdagi uylar quradi.

Daraxtlarda, topografik minoralarda, cho'qqi qoyalarda uya quradi. Har bir juftlik bir nechtadan uyaga ega bo'lib, ko'p yil undan foydalanadi. Har yili uylarini boshqasiga almashtirib turadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, ularning uydan-uyga almashishi uyalaridagi qush burgasi va boshqa parazitlar ko'payishidan saqlaydi. Har yili uyalarini qurishni davom ettiraveradi. SHuning uchun uyalar hajmi kattalashib boradi. Daraxtlarga qurilgan uylarning og'irligidan daraxt shoxlari sinib ketadi. 3-5 yilda ko'payishni boshlaydi. Makiyoni yanvardan mart oxiriga qadar tuxum qo'yadi. Bu uya qurilgan joyga bog'liq. Och qo'ng'ir (kir) rangdagi tuxumlardan 42 -45 kunda poloponlar chiqadi. Jo'jalarini 2 oydan ortiq vaqt davomida boqadi. 75-80 kunlik bo'lganda burgutchalar uchirma bo'ladi. Lekin keyingi bahorgacha ota-onasini tashlab ketmaydi.

Tasqara, qora grif – *Aegypius monachus* [Linnaeus, 1766]

Qora grif yirtqich qushlar turkumi qiyg'irlar oilasining vakili. Yirik o'limtikxo'r qushlardan. Og'irligi 12 kg gacha bo'ladi. Qanotini yozganda 290 sm,

qanot uzunligi 75-87 sm. Rangi qora-qo'ng'ir. Boshi qora pux bilan qoplangan. Oyog'i och-qo'ng'ir. Tumshug'i kulrang. Mo'mchasi (voskovitsa) patsiz (yalong'och) bo'yni havorang.

Farg'ona vodiysida Oloy, Turkiston, CHotqol tog'larida, tog' yonbag'irlari yoki baland daraxtlarga uya quradi. Uyalarini yildan-yilga to'ldirib boradi, uya kengli 2 m, balandligi 1 m bo'ladi. Ko'pincha, bitta tuxum qo'yadi, 65 kun mobaynida xo'rozi, makiyoni navbatlashib bosadi. Tuxumidan chiqqan sarg'ich-kulrang puxli jo'jalarini 3 oy mobaynida uyalarida boqadi. Bolalarini jig'ildonidagi ovqatni qusib boqadi.

Qora grif yirik sut emizuvchilarning o'ligi bilan ovqatlanadi. Juda ochko'z bo'ladi. ayrim hollarda to'yib ketib uchaolmay qoladi. Havoda suzib uchadi. Bu qush Markaziy Osiyo tabiatiga ko'rk beradigan qush. Muhofazaga muhtoj qushlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, CITES ning II ilovasi hamda Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining. Qizil ro'yxatiga kiritilgan.

Qora kalxat (korshun) – *Milvus migrans* [Boddaert, 1783]

Yirtqich qushlar turkumi, qirg'iylar oilasining vakili. Rangi qo'ng'ir yoki to'q qo'ng'ir rangda. SHarqiy yarimsharda keng tarqalgan qushlardan. Korshun, Afrika, Janubiy Osiyoda qishlaydi.

Markaziy Osiyoga apreldan uchib kela boshlaydi. Sentyabr', oktyabr' oylarida uchib ketadi. Uchib o'tish davrida o'nlab gala hosil qiladi. Kunduzi alohida-alohida yashab, kechasi to'planadi. Ba'zi ko'payish davrida ham bir nechasi koloniya hosil qilishi mumkin.

Ko'payish vaqtida korshunlar daryo bo'ylaridagi, ko'llar atroflaridan o'rmonlarda uya quradi. Ilgari korshun aholi yashaydigan joylar, shaharlar atrofida odamdan qo'rqmasdan yashagan. Ularni odamlar tomonidan noo'rin o'ldirilishi natijasida hozirgi kunda juda kamayib ketgan. Nodir qushlardan hisoblanadi. Uyalarini balandda, katta shoxdor daraxtlarning baland joylaridagi eski uyalarini tuzatadi yoki yangisini quradi. Uyalarini – jun, lattalar, o'simliklar, daraxt po'stlog'i va quruq ot go'ngi bilan bezaydi. Uya qurish davrida havo o'yini doimo kuzatiladi. Xo'rozlar doimo makiyonlar orqasidan kuzatib uchadi, uyasi ustida aylanma uchadi, tezlik bilan tepaga va pastga sho'ng'iydi. Aprelda tuxum qo'ya boshlaydi.

Ikkitadan to'rttagacha tuxum qo'yadi. Tuxumi oqish, unda qo'ng'ir dog'lar bor. Bir oyga yaqin tuxum bosadi, jo'jalari 25 kunlarda patlar bilan qoplanadi, 20 -25 kundan keyin uchirma bo'lib uchib ketadi. Bir necha kun ota-onasi bilan birga yurib, avgustda tarqalib katta galaga qo'shiladi. Korshun mayda kemiruvchilar sichqon, kalamush, sudralib yuruvchilar, baqalarni ovlaydi. O'limtiklardan ham hazar qilmaydi, ba'zida uy qushlariga ham hujum qiladi. Ovchilik xo'jaliklariga va parandachilik xo'jaliklariga keltiradigan zarari unchalik sezilarli emas.

#### **XULOSA**

1. Yirtqich qushlar ornitofaunasining – hozirgi holati, tur tarkibi, tarqalishi, soni, ekologik xususiyati va ularning ekologik moslashuv yo'llari o'rganildi.

2. Ekologik xususiyatlari atroflicha o'rganilib, hududning mintaqaviy joylashuvi va unda hayvonlarning ekologik tarqalishi adabiyotlardan foydalangan holda tahlil qilindi.

3. Yirtqich qushlarning ayrimlari o'troq va boshqalari esa kelib-ketuvchi qushlar sanaladi.

5. Qushlarning geografik tarqalishi, yashash joylariga taqsimlanishi, pushtdorligi, avvalo, ularning oziqlanishiga bog'liq. Shularni hisobga olib, yirtqich qushlarining oziqa spektri tadbiiq etildi.

6. Vodiyning yirtqich qushlari ayrimlarining ro'yxati tuzildi va tur tarkibi aniqlandi.

7. Ayirm yirtqich qushlarning biologiyasi va hayot tsikli o'rganildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ahmedov M.H., Oripov J., Zokirov I. Farg'ona vodiysining muhofazaga olingan hayvonlari. – Farg'ona, “Universitet”2008. – 74 b.
2. Bogdanov M. N. Ocherki prirodi xivinskogo oazisa i pustini Kizil-Kum, Tashkent, 1882. 274-s.
3. Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari. -T.: O'qituvchi, 1983. – 315 b.
4. Demenchuk G. A. Xishnie ptitsi Issik-Kul'skoy kotlovini, primenyaemie v kachestve lovchix // Tr. Issik-Kul'skogo zapovednika. Frunze, 1979. № 1. –S. 70-85.
5. Dolnik V. R. Koeffitsienti dlya rascheta rasxoda energii svobodnojivushimi ptitsami po dannim xronometrirovaniya ix aktivnosti // Ornitologiya. 1980. Vip. 15. -S. 63-74.
6. Ekologiya i povedenie pits // Sb. nauch. tr. Otv. red. V.D.II'ichev. -M.: Nauka. 1988. - 248 s.
7. Egamberdiyev M.X., Shermatova Yo.V. “Yirtqich qushlar va ularning ahamiyati”// “XXI ASR – INTELEKTUAL AVLOD ASRI” shiori ostidagi hududiy ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2014. 40-41-b.
8. Gavrilov V. M. Sutochnie izmeneniya metabolizma pokoya u ptits // Ornitologiya. 1981. Vip. 16. -S. 42-50